

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JUMANIYAZOVA NODIRA XUDAYBERGANOVNA

**9-10-SINF O‘QUVCHILARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Jumaniyazova Nodira Xudayberganova

9-10-sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish..... 3

Жуманиязова Нодира Худайбергановна

Совершенствование методики развития базовых компетенций учащихся 9-10 классов..... 25

Jumaniyazova Nodira Khudaiberganova

Improving the methodology for the development of basic competencies in students of grades 9-10..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JUMANIYAZOVA NODIRA XUDAYBERGANOVNA

**9-10-SINF O‘QUVCHILARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5029 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www. Guldu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raxmatov Uchkun Ergashevich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ergasheva Malohat Tursunovna
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Shodiyeva Matluba Jo'rayevna
pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.91.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil «14» 09 kuni soat 10:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze. Tel.: (+99867) 225-39-25; faks: (+99867) 225-39-25; E-mail: glsuinfo@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 40 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze Tel.: (+99867) 225-39-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «28» 08 kuni tarqatildi.

(2024 - yil «28» 08 dagi (№ 1 raqamli reyestr bayonnomasi)



A.Pazilov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., professor

E.P.Gaibnazarova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.f.n(PhD), dotsent

E.B.Shakarboyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar ta'lim sifatini modernizatsiyalash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning innovatsiyon texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. 2030-yilgacha mo'ljallangan YUNESKOning Incheon deklaratsiyasida "Ta'lim – tarqqiyotning muhim harakatlantiruvchi omili va barqaror rivojlanish maqsadlariga yo'naltiruvchi kuch" deyilgan hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish, innovatsion faoliyatni takomillashtirish, insonlar hayotini o'zgartirish bo'yicha tizimli amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida mantiqiy va kreativ fikrlay oladigan, egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zining kelgusi hayotida qo'llay olish qobiliyatlari rivojlangan mutaxassislar tayyorlash, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi islohatlar asosida ta'lim sifatini oshirish, davlat ta'lim standartlari va dasturlarini takomillashtirish, o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari, mezonlari, ta'lim mazmunini ilm-fanning so'nggi yutuqlari bilan uyg'unlashgan holda takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, mustaqil ta'lim olish, bilimlarni uzluksiz ravishda oshirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish tamoyili asosida o'quvchilarning kompetentligini kengaytirishni ta'minlovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanish, tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish, o'quvchilarning kognitiv, kommunikativ va shaxsiy faoliyatini rivojlantirish, o'qituvchining pedagogik faoliyati uchun zarur didaktik va metodik ta'minotni yaratish, ta'limga yangi o'qitish metodikasini joriy etish, ta'lim resurslaridan foydalanish"¹ kabi ustuvor vazifalar belgilandi. Bu borada biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari va mezonlarini aniqlash, biologiyadan o'quv topshiriqlarini tizimli ravishda o'qitish jarayoniga tatbiq etishning didaktik va metodik ta'minotini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2020-yil 12-avgustdagi 4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. PF-5712-son. 2019-yil 29-aprel. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y., 06/19/5712/3034-son.

sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son qarori hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda mustaqil va ijodiy, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, interfaol ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, kompyuter saxodxonligini takomillashtirish masalalari J.Yo'ldoshev, B.Djurayev, N.Muslimov, A.Abduqodirov, N.Azizxodjayeva, U.Begimqulov, R.Isyanov, Sh.Sharipov, B.Xodjayev, Yu.Mahmudov, R.Safarova, Z.Mamatqulova, B.Nazarova, A.Maxmudov, M.Urazova, D.To'xtasinov, O.Qurbonova, M.Kenjayeveva, A.Urazimbetova, B.Umarov, M.A.Zaynidinova, M.M.Vaxobov, A.Sh.Muxsiyevlar va boshqa ishlarida o'z aksini topgan. Biologiya fanlarining mazmuni va o'qitish metodologik asoslarini takomillashtirish, biologik ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari A.G'ofurov, D.Sharipova, J.Tolipova, G.Shaxmurova, O.Mavlonov, O'.Pratov, A.To'xtayev, A.Zikriyayev, I.Azimov, S.Fayzullayev, K.Saparov, U.Raxmatov, G.Ergasheva, A.Raximov, M.Umaraliyeva, N.Karimova, I.Abduraxmonova, R.Madatov, R.Xalitova, Sh.Kenjaboyev va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari va pedagogik-psixologik jihatlarni rivojlantirish masalalari V.Medvedev, Yu.Tatuar, V.L.Bozadjiyev, I.V.Grishina, O.A.Kozereva, I.A.Zimnyaya, A.I.Subetto, G.S.Kovaleva, N.G.Koshelenko, V.A.Slastenin, E.F.Zeyer, V.A.Yakunin, R.X.Tugashev, A.B.Xutorskoy, N.V.Kuzmina, G.K.Selevko, L.O.Fitalova, Dj. Raven kabilar tomonidan tadqiq qilingan.

Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning umumiy masalalari, shuningdek, biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning didaktik vositalarini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish masalalari bo'yicha A.Reading, K.Keen, R.White, F.Delamare, J.Winterton, M.Berkman, E.Plutzer, J.Miller, R.Toth, E.Kose, K.Sejpal, B.Bishop, S.Anderson, M.Clores, A.Limjap kabi xorijlik olimlari tomonidan tadqiq etilgan.

Pedagog-metodistlar tomonidan o'qituvchilarning kasbiy-metodik kompetentligini takomillashtirish muammosi bilan bog'liq keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish maxsus tadqiqot oby'ekti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent

davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron ta‘lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024-yy.).

Tadqiqotning maqsadi: 9-10-sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilib, biologiya darslarida kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

innovatsiyon ta‘lim texnologiyalari asosida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

yuqori sinf o‘quvchilarida biologiyadan tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari va baholash mezonlarini aniqlash hamda olingan natijalarni matematik statistika metodlari yordamida tahlil qilish;

biologiya fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida 9-10-sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahri, Toshkent va Xorazm viloyatlaridagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridan jami 1447 nafar respondent-o‘quvchi jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini 9-10-sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda muammoga oid metodik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish; DTS, o‘quv dasturi darslik, o‘quv qo‘llanmalarni o‘rganish; pedagogik kuzatuv, umumlashtirish, ijtimoiy metodlar (anketa, savol-javob, suhbat, test, ekspert baholash), pedagogik tajriba-sinov, matematik statistika metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

9-10 sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari tayanch kompetensiyalar amaliy integrativligini optimallashtirishga qaratilgan nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta‘minlash hamda o‘qitishning tadqiqiy salohiyatini kengaytirish va ijodiy faoliyatni bosqichma-bosqich individuallashtirish jarayonlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

9-10 sinf o‘quvchilarida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni “Keys-stadi”, “Aqliy hujum”, “Atamalar zanjiri” “Swot-tahlil”, “Assesment”, “Charxpalak”, “Venn diagrammasi”, “Tushunchalar tahlili”, “Klaster”, “Insert” metodlari xususiy va umumiy parametrlarining yaxlit konvergent ta‘limiy imkoniyatlarini prognostik aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

9-10 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish samaradorligi ta'lim subyektlari o'rtasidagi qayta aloqani ta'minlash hamda baholashning motivatsion-kognitiv, kognitiv-kreativ, jarayonli-integrativ mezonlarini axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, milliy va umummadaniy pragmatik yaxlitligini qiyosiy tahlil qilish asosida takomillashtirilgan.

9-10 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli tabiiy-amaliy bilimlarni oddiydan murakkabga qarab rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik hamda o'quv axborotlarini tahliliy-sintetik qayta ishlash, imitatsiyalarini yaratish va o'quv materiallarini interpretatsiya qilish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

9-10-sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish asosida biologik hodisa va jarayonlarning mohiyatini anglash, tahliliy munosabat bildirish, yangi vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, atamalarni izohlay olish, tirik organizmlarga nisbatan ongli munosabatni rivojlantirishga asoslangan dars loyihalari yaratilgan;

o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish yuzasidan biologiya darslarida innovatsiyon pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish tizimi yo'lga qo'yilgan va ta'lim mazmuni komponentlarini o'zaro uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish maqsadida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi aloqa ta'minlangan, o'qituvchilar uchun "Biologiya o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

9-10-sinflar uchun "Biologiya" o'quv fanidan metodik va o'quv axborotlarini tahliliy-sintetik qayta ishlash, imitatsiyalarini yaratish, o'quv materiallarini interpretatsiya qilish asosida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi mamlakatimiz va xorijiy davlatlar olimlarining ilmiy va ilmiy-metodik tadqiqot ishlari, amaliyotchi-o'qituvchilarning tajribalariga asoslanilgani, tadqiqot vazifalariga mos, o'zaro bir-birini to'ldiradigan adekvat metodlar qo'llangani, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan hamda xorijiy nashrlarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o'quv qo'llanmalar, ularga taqrizlar, tajriba-sinov natijalarining matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati biologiya ta'limida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga doir ta'lim mazmuni sinflar kesimida muvofiqlashtirilgani, biologiya darslarida atamalar tahlili, masalalar yechishga oid topshiriqlar tahlil qilinib takomillashtirilgani, biologik ko'nikma, malakalarni hosil qilish, erkin muloqot qilish, darslik bilan mustaqil ishlashga xizmat qiluvchi metodlar asoslangani, o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni, metodlari, vositalari, mezonlarini aniqlashtirish asosida biologik ta'lim samaradorligi oshirilgani

bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumiy o'rta ta'limda biologiya darslari jarayonida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif, tavsiya va xulosalardan o'qitish sifatini oshirish, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'limda mutaxassislik fanlaridan o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratish, malaka oshirish kurslari, biologiya o'qituvchilarining pedagogik amaliyot jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

9-10 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari tayanch kompetensiyalar amaliy integrativligini optimallashtirishga qaratilgan nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash hamda o'qitishning tadqiqiy salohiyatini kengaytirish va ijodiy faoliyatni bosqichma-bosqich individuallashtirish jarayonlariga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar "Biologiya o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023 yil 28 sentyabrda 2/3.2 son qarori asosida berilgan 298-U-82 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish uchun sharoit yaratilgan.

9-10 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni "Keys-stadi", "Aqliy hujum", "Atamalar zanjiri" "Swot-tahlil", "Assesment", "Charxpalak", "Venn diagrammasi", "Tushunchalar tahlili", "Klaster", "Insert" metodlari xususiy va umumiy parametrlarining yaxlit konvergent ta'limiy imkoniyatlarini prognostik aniqlashtirish asosida takomillashtirishga doir takliflar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-20170923121 raqamli "Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 1-martdagi 02-07-787 raqamli dalolatnomasi). Natijada, innovatsiyon ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish imkoni kengaytirilgan;

9-10 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish samaradorligi ta'lim subyektlari o'rtasidagi qayta aloqani ta'minlash hamda baholashning motivatsion-kognitiv, kognitiv-kreativ, jarayonli-integrativ mezonlarini axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, milliy va umummadaniy pragmatik yaxlitligini qiyosiy tahlil qilish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Biologiya o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023- yil 28- sentyabrda 2/3.2 son qarori asosida berilgan 298-U-82 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, yuqori sinf o'quvchilarida biologiya faniga oid kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va baholash mezonlarini aniqlash imkoni kengaytirilgan;

9-10 sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli tabiiy-amaliy bilimlarni oddiydan murakkabga qarab

rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik hamda o‘quv axborotlarini tahliliy-sintetik qayta ishlash, imitatsiyalarini yaratish va o‘quv materiallarini interpretatsiya qilish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-20170923121 raqamli “Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 1-martdagi 02-07-787 raqamli dalolatnomasi). Natijada, biologiya fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ish, jumladan, bitta o‘quv qo‘llanma (Biologiya o‘qitish metodikasi) O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 7 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi bayon etilgan. Shuningdek, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob‘yekt va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatyasi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma‘lumotlar o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyaning **“Umumta‘lim maktablari o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida umumta‘lim maktabi o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida mamlakatimiz, MDH va uzoq xorij davlatlari olimlarining ishlari doirasida tahlil qilingan. O‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish muammosini o‘rganish yuzasidan ko‘plab olimlarning tadqiqotlari o‘rganilgan. Mazkur muammoning turli jihatlariga olimlarning qiziqishi ortib borayotgani, ta‘lim sifatini tubdan isloh qilishning dolzarb muammo ekani asoslangan.

Bugungi globallashuv sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli, raqobatbardosh kadrlarni voayaga yetkazish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida uzluksiz ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish va modernizatsiyalash natijasida biologik ta‘lim jarayoni sifatini oshirish, o‘quv jarayoniga innovatsiyon

texnologilarni samarali tatbiq etish, o'quv fani mazmunini takomillashtirish muammosi tahlil etilgan hamda nazariy asoslari yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya o'quv fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish, ta'lim jarayoniga innovatsion g'oya va ishlanmalarni amaliyotga joriy etish ayni vaqtda dolzarb vazifalardan sanaladi. Shu bois ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish bugungi kun talabi bo'lib, davlat va jamiyat ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining amaliyotga joriy etilishi bilan bevosita bog'liqligi yoritilgan.

Ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning turli aspektlari bo'yicha olimlar tomonidan berilgan ko'plab talqinlar mavjudligi sababli ularni ilmiy-metodik nuqtai nazardan tahlil qilish talab etiladi. Shunga ko'ra, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish yo'li bilan ta'lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga oid tadqiqotlar va metodik hamda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali "kompetensiya", "kompetentlik" tushunchalari mohiyati, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim maqsadlari ochib berilgan.


Ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish muammosi, "kompetensiya", "kompetentlik" tushunchalarning tuzilmasi va mazmun-mohiyati respublikamiz olimlari J.Yo'ldoshev, B.Djurayev, N.Muslimov, A.Abduqodirov, N.Azizxodjayeva, B.Xodjayev, R.Safarova, Z.Mamatqulova, B.Nazarova, A.Maxmudov, D.To'xtasinov, O.Qurbonova, M.Kenjayeveva, A.Urazimbetova, B.Umarov, M.M.Vaxobov, A.Sh.Muxsiyeva, U.Raxmatov, M.Umaraliyeva, Sh.Kenjabojev; MDH olimlari V.Medvedev, Yu.Tatuar, V.L.Bozadjiyev, I.V.Grishina, O.A.Kozereva, I.A.Zimnyaya, A.I.Subetto, V.A.Slastenin, E.F.Zeyer, V.A.Yakunin, R.X.Tugashev, A.B.Xutorskoy, N.V.Kuzmina, G.K.Selevko, L.O.Fitalova, Dj. Raven; A. Reading, K. Keyen, R.White, F.Delamare, J.Winterton, M.Berkman, E.Plutzer, J.Miller, R.Toth, E.Kose, K.Sejpal, B.Bishop, S.Anderson, M.Clores kabi soha xorijlik olimlar tomonidan tatqiq etilgan.

Kompetensiya – muayan fan bo'yicha egallagan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda, amaliyotda qo'lay olish. Kompetensiya o'z bilim, ko'nikma, malakalarini qat'iy tartibda oshirish, fandagi so'nggi yangiliklarni o'zlashtirish, ayni vaqtda davr talablarini anglay olish, fandagi yangiliklarni qidirib topish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion texnologiyalardan pedagogik faoliyatda uyg'un ravishda samarali foydalanishni talab etishi aniqlashtirilgan.

Tadqiqotda kompetentlik ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan ekanini e'tiborga olgan holda mazkur pedagogik tushunchaga quyidagicha ta'rif berildi: kompetentlik o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini faollashtirish, yangilash, zarur hollarda korreksiyalash, integratsiyalash, yangi mazmun bilan boyitish va muayyan muammoli vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo'llay olishi bilan xarakterlanadigan ko'rsatkichdir.

Olib borilgan tadqiqot davomida biologik ta'lim jarayonida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha o'qitish shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan biologik ta'lim mazmuni boyitildi. O'quvchining umumiy rivojlanishi, mustaqil hayoti davomida individual, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarni yo'lga qo'ya olishi, hayotda va jamiyatda o'z mavqeini egallashi, hayotiy faoliyatida duch keladigan muammolarni hal etishi, kasbiy sohasi doirasida raqobatbardosh kadr bo'lishi uchun zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar *tayanch kompetensiyalar* deyiladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzviyligi, uzluksizligi, o'quvchi shaxsi ustuvorligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilangan (1-rasmga qarang).



1- rasm. O'quvchilarda rivojlantiriladigan tayanch kompetensiyalar

Umumiy o'rta ta'lim maktabi 9-10-sinf o'quvchilarini barkamol va raqobatbardosh qilib tarbiyalashda tayanch kompetensiyalar alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida dunyoning rivojlangan davlatlarida qabul qilingan davlat ta'lim standartlaridagi kompetensiyalar tahlil qilindi, mazkur masalaga yondashuvlar har bir mamlakatning ta'limdan ko'zlagan maqsadi, imkoniyati va shart-sharoitlaridan kelib chiqqanini ko'rsatdi. Ta'limning uzluksizligini ta'minlash, barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirish, o'qitiladigan umumta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar mazmun-mohiyati har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda yoritilgan.

Metodist olimlar tomonidan biologik ta'lim jarayonida 9-10-sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi yuzasidan maxsus tadqiqot olib borilmagan. Tadqiqotimiz doirasida kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan biologik ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari tadqiq etildi.

Biologik savodxonlikni oshirish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni ta'lim tizimiga joriy etish bir qancha avzalliklarga ega ekani aniqlandi:

davlatning jamiyat, fan va ishlab chiqarish sektorlari hamda hayotda duch keladigan muammolar yechimini topishda yoshlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirish maqsadida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda kreativ yondashuvlar asosida tatbiq etishga o'rgatish; biologik ta'lim mazmunini o'zlashtirish jarayonida muammoli ta'lim asosida fan asoslarini puxta o'rganish, fanga oid qiziqishlarini oshirish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish; o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish jarayonida biologik ob'ektlarga murojaat va mavjud muammolarni hal etishga o'rgatish orqali tabiatda ro'y beradigan voqea-hodisalarning tub mohiyatini anglab yetish asosida DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish; o'quvchilarni kelgusi kasbiy faoliyatga tayyorlash, kreativ faoliyat tajribalari va kichik tadqiqotchilik layoqatlarini tarkib toptirish asosida fan sohalariga yo'laltirish; o'quvchilarni biologiya o'quv fanidan o'zlashtirilgan ilmiy-nazariy hamda metodik bilimlarini kutilmagan vaziyatlarda qo'llash orqali mustaqil hayotga tayyorlash.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning bosh maqsadi amaliy va kasbiy faoliyatga yo'naltiruvchi fanlardan iborat ta'lim tizimi jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalardan o'zining kelgusi hayoti davomida, shuningdek, kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatida amaliy jihatidan yuqori darajada foydalana olish kompetensiyalarini shakllantirishga imkoniyat yaratish hisoblanadi. Bo'lajak va umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan biologiya o'qituvchilari o'quvchilarini kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga tayyorlay olishi, jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishiga yo'naltirishi va vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishga o'rgata olishi, asosiysi, o'zining sohasi, kasbi bo'yicha xalqaro talablarga mos holda raqobatbardosh va barkamol avlod bo'lib yetishishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarni rivojlantira olishi zarur.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchida muayyan kompetensiyalarni shakllantirish asosida taskil etiladi. Bu esa fan asoslarini o'rganishning asosiy maqsadi va natijasi hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quv jarayonida ta'lim mazmuni, shakl, metod va o'quv vositalarini to'g'ri tanlash asosida amalga oshiriladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv, asosan, maqsadlarga yangicha qarash kasbiy faoliyatni baholash natijalari, shuningdek, ta'lim jarayonini tarkibiy qismlari, jumladan, mazmuni, pedagogik texnologiyalari, monitoring va baholash vositalarini o'z ichiga oladi. Bunday kompetensiyaga asoslangan yondashuvning amalga oshirishda o'quvchilar ham, o'qituvchilar ham o'ziga xos integratsiyalanhan harakat qilishi lozim. Zamonaviy ta'lim inson o'zini va atrof-muhitni anglashini ta'minlashi, axborot makonida mehnat va hayot jarayonida uning ijtimoiy funksiyasini bajarishga hissa qo'shishi kerak.

O'quvchilar biologiya darslarida fan asoslarini puxta egallashi har bir mutaxassisdan yuqori bilim va mahoratni talab etadi. Biologiya ta'limining maqsadi biologik tizimlarda ro'y beradigan voqea va hodisalar mohiyatini teran anglash, tirik organizmlarda kechadigan biokimyoviy va biofizik, fiziologik jarayonlar mazmunini tushunish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish, biologik bilimdonlik asosida

raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishda o‘z aksini topadi. Shu boisdan umumta’lim maktabi o‘quvchilari tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning **“9-10-sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning amaliy texnologik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida o‘quvchilarda kompetensiyalarni rivojlantirishning metodologik jihatlari ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, biologiya darslarida o‘quvchilarda rivojlantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalar va ularning turlari, mazmuni, biologiya darslarida foydalanish yo‘llari hamda kompetensiyalar o‘rtasidagi bog‘lanishlar aniq biologik misollar asosida yoritilgan. Umumta’lim maktablari o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini tarkib toptirishda turli tadbirlar, biologik kechalar o‘tkazish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Biologiya darslarida 9-10-sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida interfaol ta’lim texnologiyalari va interfaol metodlar aniqlashtirilgan hamda mazkur texnologiyalardan biologik ta’lim jarayonida foydalanish metodikasi amaliy texnologik jihatidan yoritilgan (2-rasmga qarang).

Bugungi globallashuv sharoitida tezlik bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga ta’lim tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha dolzarb hamda keng qamrovli talablarni qo‘ymoqda. Muhim strategik maqsadlarga erishish, yangidan yangi marralarni egallash, dunyoning rivojlangan davlatlari qatoridan joy olish uchun dastlab mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli, kasbiy kompetentligi rivojlangan kadrlar, mutaxassislarning bo‘lishi muhim omillardan biri sanaladi.



2-rasm. Interfaol ta’lim texnologiya va metodlarining tasnifi

Raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish asosida inson kapitali, boshqacha aytganda, inson va uning ilmiy-metodik salohiyatini kashf etish hamda uni yuqori maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ustuvor vazifalar yotadi.

Yuqoridagi ustuvor vazifalarni ruyobga chiqarish va biologiya darslarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida bo'lajak o'qituvchilar:


fanni o'qitish jarayonida foydalaniladigan pedagogik texnologiyalardan o'zining pedagogik faoliyati davomida amaliyotga tatbiq eta olishi; zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish; nazariy mavzular, amaliy, laboratoriya va loyiha ishlarini tashkil etishlarida interfaol ta'lim texnologiyalari va metodlarini qaysi bosqichlarida qo'llashni; tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda sinxron va asinxron bog'lanishlarni o'zlashtirgan bo'lishi; biologik ta'lim jarayonida dars, darsda va sinfdan tashqari o'qitish shakllarini to'liq o'zlashtirishi; tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida xalqaro baholash dasturlaridan o'zining pedagogik faoliyatida foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi; davr talablarni anglay olishi, fan yangiliklarni izlab topish, ularni tahlil qilish va o'zining kelgusi pedagogik faoliyatida oqilona qo'llay olishi; tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda biologik masalalar yechish metodikasini yuqori metodik darajada egallagan bo'lishi lozim.

O'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida bo'lajak biologiya fani o'qituvchisi: o'rganilayotgan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning bilish faoliyatini qaysi shaklda tashkil etishni; o'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalarni oldindan loyihalashi; dars davomida o'quvchilarning bilish faoliyati natijalarini tahlil qilishi va uning maqsadga muvofiqligini tekshirishi; zarur hollarda o'quvchilarning bilish faoliyati loyihasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish lozim.

Olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy-metodik adabiyotlar tahliliga ko'ra, biologiya darslarini tashkil etish va o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida didaktik o'yin, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, muammoli ta'lim, loyihalash texnologiyalari, shuningdek, an'anaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'zlangan maqsadlarga erishishda yetakchi o'rin egallashi aniqlandi. Tadqiqotlar asosida biologiya darslarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).

Biologiya darslarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida fanlararo bog'lanishlar alohida ahamiyatga ega. Integrativ materiallarni tanlashda o'qituvchi quyidagi didaktik mezonlarga, xususiyatlarga ega bo'lish lozimligi isbotlangan. Fanlararo bog'lanish turlari maxsus bilimlar yoki faktik, tadqiqot ishi maxsus bilim sohasi hisoblangan biologiyani tabiiy fanlar bilan bog'lab o'qitishni asos qilib, unda umumiy va xususiy biologik tushunchalar bilan kimyoviy va fizik tushunchalar o'rtasidagi sinxron hamda asinxron bog'lanishlar ko'zda tutiladi.

Biologiya o'qituvchisi o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini tarkib toptirish maqsadida mavzuga oid o'quv va videofilmlardan foydalanishi, qo'shimcha adabiyotlar va Internet saytlaridagi ma'lumotlarni saralashi, shu asosda o'quvchilarga referat, doklad va taqdimot materiallarini tayyorlash yuzasidan topshi riqlarni berish orqali ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishi uchun dars, darsdan



3-rasm. 9-10-sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli

tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlardan samarali va o'z o'rnida foydalanishning metodik tizimi ishlab chiqilgan.

Biologiya fanini o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishi o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllanish jarayonida muhim vositalardan sanaladi. Mazkur jarayonda Ms Word, Ms excel, Ms Power Point, Flash, Movie Maker kabi turli dasturiy ta'minot va boshqa "Veb" vositalardan foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning "**Pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish va uni o'tkazish**" deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi, mazmuni, tajriba-sinov natijalarining matematik statistik tahlili va samaradorlik darajasi haqida fikr yuritilgan. Tajriba-sinov ishlarida jami 1447 nafar respondent-o'quvchi ishtirok etgan.

Tadqiqotning birinchi – izlanuvchi-ta'kidlovchi bosqichida (2021/2022-o'quv yili) pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazishga tayorgarlik ishlari amalga oshirildi. Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotni o'rganish ob'ektlari bo'yicha 9-10-sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyasining o'quv-uslubiy ta'minotini yaratishga doir uslubiy ta'minotni himoya qilish huquqini beruvchi manbalar, pedagogik va metodik adabiyotlar, darsliklar va ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlashlari amalga oshirilgan.

Izlanuvchi-ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlaridan olingan natijalar asosida shakllantirilgan hujjatlardan kelib chiqqan holda 9-10-sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining samaradorligi aniqlandi va umumiy xulosalar chiqarildi. Izlanuvchi-ta'kidlovchi bosqichda tajriba-sinov dasturlarini tayyorlashda DTS talablari, o'quv dasturlari, darsliklar va qo'llab-quvvatlovchilarni yo'lga qo'yish va kamchiliklari, tajriba metodlari bo'yicha ishlarni ishlab chiqishda jamlanmani yaratishga yordam beradi.

Tadqiqotning ikkinchi – shakllantiruvchi (2022/2023-o'quv yili) bosqichida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish metodikasi tashkil etilgan darslar mazmuni, shakl, metodlari izlanuvchi-ta'kidlovchi bosqichda natijalar asosida shakllantirildi. Shakllantiruvchi bosqichda o'quv materiallari sifatida taqdim qilingan axborotlar tizimlashtirildi, mashqlar tanlanib tahlil qilindi.

